

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-102 sonli Farmoni.
2. Ana Maria Campon-Cerro, J. M.-M.-F. (2019). Best Practices in Hospitality and Tourism Marketing and Management. Springer Link.
3. Huaxia. (2021). Uzbekistan expects int'l tourists to return after pandemic. In Xinhua, www.xinhuanet.com (p. China). Xinhua: 2021-02-14 16:47:38.
4. Rustamovich, D. B. (2020). Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan. In J. o. Marketing, Journal of International Business Research and Marketing (p. Uzbekistan). Tashkent: September, 2020.
5. Mustanov N., Mirobidova D., Azamatova S., Toshpo'latova M. (2021). O'zbekistonda ziyorat turizmi va ichki turizmning rivojlanish tamoyillari hamda turizmning pandemiya bilan bog'liqligi // Экономика и социум. №5-1 (84). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-ziyosat-turizmi-va-ichki-turizmning-rivojlanish-tamoyillari-hamda-turizmning-pandemiya-bilan-bog-liqligi>

O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra mudiri
iqtisodiyot fanlari doktori (DsC), professor,
aa_eshtaev72@mail.ru

Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li

Tayanch doktorant, daston_kamilov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror turizm tushunchasining mohiyati, **asoslarini takomillashtirish** yo'nalishlarini belgilangan, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish asosida sohaning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olish va xorij tajribasini o'rganish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, turist, xalqaro va ichki turizm, barqaror turizm, yashil turizm, ekologik turizm, chora-tadbirlar, infratuzilma.

Abstract: This article tells us about the essence of the concept of sustainable tourism, areas for improving its foundations, and presents proposals and recommendations for identifying areas of development in the sector and studying foreign experience based on an analysis of the work being done in our country in this regard.

Key words: tourism, tourist, international and domestic tourism, sustainable tourism, green tourism, ecotourism, events, infrastructure

Kirish: Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, iqtisodiy raqobat kurash kurashlariga qaramasdan turizm industriyasi iqtisodiyotning faol rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanib bormoqda. Bunda barcha davlatlar o'zi uchun qulay bo'lgan turizm yo'nalishini, ya'ni bozorda mavqeini egallashga, xizmatlar ko'rsatishning har tomonlama qulay bo'lgan yo'nalishlarini tanlashga harakat qilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri turizm sohasi rivojlangan davlatlar uning serdaromad sohalardan biri ekanligi, ya'ni turizmda topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo'liga ish haqi bo'lib borishi, sanoatda va boshqa tarmoqlarda bu 10 foizdan oshmasligi, qolaversa turizmni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida yangi ish o'rinlarini yaratishda namoyon bo'lishi, ya'ni turizmda yaratilgan 1 ta ish o'rni boshqa sohalarda qo'shimcha 2 ta ish o'rnini yaratilishiga olib kelishini to'g'ri anglab yetmoqda. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining rivojlanishi transport, mehmonxona biznesi, umumiy ovqatlanish xizmatlari va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining o'sishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, mahalliy aholining turizm orqali barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi ichki bozor faollashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlatlar turizm sohasida investitsiyalar hajmini oshirish orqali nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki madaniy merosning saqlanishi va ekoturizmning rivojlanishiga ham erishmoqda.

Asosiy qism: Turizm sohasida marketing strategiyalarining samarali qo'llanilishi esa xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli, bugungi kunda turizmni diversifikatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb masalaga aylangan. Shu sababli, bugungi kunda turizmni diversifikatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, texnologik taraqqiyot sayyohlik xizmatlarining raqamlashtirilishiga zamin yaratib, onlayn bronlash, virtual turlar va interaktiv xizmatlar kabi qulayliklarni rivojlantirishga yordam bermoqda. Turizm marketingida raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning roli ortib, turistlarni jalb qilishda samarali vositalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bundan tashqari, barqaror turizm tamoyillariga asoslangan holda ekologik toza sayyohlik loyihalarini rivojlantirish tabiiy resurslarni asrab-avaylash hamda uzoq muddatli iqtisodiy foyda olish imkonini bermoqda.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasiga 2024 yil mobaynida safar maqsadi bo'yicha tashrif
buyurgan xorijiy fuqarolar³**

Mamlakat	Safar maqsadlari (ming kishi)							Jami
	xizmat yuzasidan	o'qish	bo'sh vaqt va dam olish	Qarindosh-larni yo'qlash	Davolanish	tijorat	boshqa	
Jami tashrif buyurgan-lar	362,368	26,965	1210,963	6264,268	107,610	209,176	2103,694	10285,044
Qo'shni davlat-lardan	209,838	9,027	363,910	5712,963	105,471	202,154	1989,821	8593,184
MDH davlat-lardan	54,901	256	339,624	469,123	1,906	561	77,711	944,082
Boshqa davlat-lardan	97,629	17,682	507,429	82,182	233	6,461	36,162	747,778

Tahlillar asosida ushbu statistik ko'rsatkichlar asosida mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlarni safar maqsadlari bo'yicha ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda turizm sohasida juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda: turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda, xalqaro va mahalliy tadbirlar, yangi ta'lim muassasalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, turistlar oqimining oshishi, yangi turizm mahsulotlari, yangicha yo'nalishlarni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirishga oid sa'i-harakatlar, xorijiy investorlarni jalb qilish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoq vakillarining tashrifi hamda O'zbekistonning ko'plab xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashi amalga oshirildi va boshqa bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Qolaversa yangi O'zbekistonni barpo etishda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025 yilning 7 fevral kuni xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025 yil uchun asosiy vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishida o'tgan yili turizm xizmatlari eksporti 3,5 milliard dollar bo'ldi. Lekin, bu imkoniyatlarimizga mos emasligi qayd etildi.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xorijiy turistlar soni 2017 yilda 2,7 mln nafar bo'lsa, 2022 yilda 5,2 mln. nafar, 2023 yilda 6,6 mln. nafar, 2024 yil davomida 10,2 mln. nafar (o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 1,5 barobarga oshgan) xorijiy turistlar tashrif

³ Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги, Туризм қўмитаси маълумотлари

buyurdi. Turistlarning o'rtacha qolish kuni 7-8 kunni tashkil etib, o'tgan davr (2-3 kun)ga nisbatan 3 baravarga ortdi. Shuningdek, har bir xorijiy turistning respublika hududida bevosita sayohat xarajatlaridan tashqari sarflaydigan o'rtacha mablag' summasi 2017 yilda 197 AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yilda 430 AQSh dollariga yetgan.

Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan 2024 yilda O'zbekiston eng tez turizm sohasi rivojlanayotgan 20 mamlakat ichida 4 o'rinda e'tirof etildi. Jahon Iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan "Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi" tadqiqotiga ko'ra, O'zbekiston 2024 yilda "Turizmni rivojlantirish bo'yicha dunyoning eng faol mamlakati" deb topildi. Bu e'tirof mamlakatda xalqaro sayyohlarni jalb qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga e'tibor kuchayib borayotganini bildiradi.

Ammo ushbu yutuqlarimiz asosan tarixiy-madaniy turizm hisobiga vujudga kelayotganligini, bunda nafaqa yoshidagi turistlarning ulushi katta ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Shu maqsadda mamlakatimizda turizmning barcha turlarini, xususan barqaror turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, 2023 yilning oktyabr oyida Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) 25-sessiyasining ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar qatorida "Yashil" turizmni rivojlantirish taklifi ham bildirildi. Buning natijasida 2027 yil "Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili" deb e'lon qilindi va rezolyusiya qabul qilinib, unda barqaror turizmni, jumladan, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni ta'minlash, qishloq hududlarini rivojlantirish va qishloq aholisining yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi ekoturizmni rivojlantirish muhimligi ta'kidlanadi. UNWTOda hozirda yashil turizmni baholash mezonlarini joriy etish metodologiyasi loyihasini ishlab chiqmoqda. Shuningdek shu munosabat bilan Samarqandda ochilgan "Ipak yo'lida turizm" tematik ofisi negizida UNWTO tomonidan moliyalashtiriladigan yashil turizm xalqaro markazini tashkil etish rejalashtirilgan.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025 yildagi PF-16-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida O'zbekiston Respublikasida "Yashil turizm" dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va yangi turizm yo'nalishlarini kengaytirish va xorijiy sayyohlarning respublikada o'rtacha qolish muddatini 10 — 12 kunga yetkazish belgilangan.

Bunda: milliy bog'lar va tabiiy qo'riqxonalarni safari turlari uchun moslashtirish, ularning infratuzilmasini yaxshilash;

Qoraqum va Qizilqum cho'llari hududida sayyohlar uchun ko'ngilochar maskanlarni tashkil etish choralari ko'rish;

Safari va kemping maskanlari hududlariga olib boruvchi yo'llar va infratuzilmani yaxshilash;

Safari hududlarida ekologik me'yorlarga mos mehmonxona, yotoq joylari va kempinglarni tashkil qilish, bu orqali turistlarga qulay va tabiatga zararsiz turizmni amalga oshirish belgilangan.

Albatta barqaror turizm - bu turizmning salbiy oqibatlarini kamaytirish, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishiga ta'sirini hisobga olgan holda, resurslarni tejash hisobiga amalga oshiriladigan, barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan turizm turidir. Turizmning ushbu turi "yashil turizm" deb ham ataladi.

Barqaror turizmda ekologik resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda, energiyani, suvni tejash, va kimyoviy mahsulotlarni kam ishlatishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, yashil transport, ya'ni ommaviy transportdan keng foydalanish, velosiped va elektromobillardan keng foydalanishni targ'ib qilishga va buning natijasida havoning ifloslanishining oldini olishga qaratiladi.

Jahondagi ko'pgina davlatlarda yashil infratuzilma asosida energiyani tejash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, bu turizm markazlarida quyosh panellari, havo

konditsionerlari va energiya samarali tizimlarni joriy etishga, turizm infratuzilmasi yaratilishida, energiyani samarali iste'mol qilish, qayta ishlash tizimlarini o'rnatish va ekologik mahsulotlardan foydalanishga, yashil binolar yoki eko-mehmonxonalar, yashil infratuzilma orqali onlayn platforma, mobil ilovalar orqali turizmni jadallashtirish va ekologik ta'sir tizimi keng yo'lga qo'yilmoqda.

Barqaror turizm rivojlangan xorijiy davlatlarda keng tarqalgan va bir qator usullaridan foydalanadi. Yaponiyada barqaror turizm madaniy merosni saqlash va milliy tabiatni muhofaza qilishga asoslangan. Turizm madaniy sayyohatlar bilan birga, ekologik va ijtimoiy barqarorlikka qaratilgan, Avstraliyada barqaror turizm davlat va xususiy sektorning yaqin hamkorligida rivojlantirilmoqda. Bu yerda mahalliy ekotizimlarni saqlash va turistik infratuzilmani zamonaviy, atrof-muhitga qulay usulda ishlab chiqishga urg'u beriladi. Kanadada barqaror turizmni rivojlantirishda tabiatni muhofaza qilish bilan birga, mahalliy hududlarning madaniy merosini saqlashga ham katta e'tibor qaratilgan. Turizmda ekologik tartiblarga amal qilish, xususiy va davlat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik va turizm faoliyatini boshqarishda barqaror yondashuvlar qo'llaniladi. Norvegiyada barqaror turizmni rivojlantirish uchun barcha transport vositalarining ekologik ta'minotga e'tibor beriladi. Avtomobillar, kemalar va boshqa transport turlari elektromobillar va eko-tizim asosida ishlaydigan usullar bilan almashtiriladi.

O'zbekistonda bugungi kunda havoning haddan tashqari ifloslanishi, ekologik muammolarning vujudga kelishi, atrof-muhitga yetkazilayotgan zararning ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, Toshkent shahrining jahondagi havosi iflos shaharlar top 10 taligidan joy olishi turizm sohasini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish uchun bir qator ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, mamlakatimizda yashil infratuzilmani saqlab qolish, yashil maydonlar, turli bog'lar tashkil qilish, turistlar va mahalliy aholi orasida barqaror turizmga oid bilimlar, dunyoqarashini o'zgartirish va ta'lim dasturlarini tashkil etish, jarimalar va jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan turizm turlarini rag'batlantirish orqali insonlarning ekologik va ijtimoiy masalalarga bo'lgan munosabatini o'zgartirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Barqaror turizm va yashil infratuzilma nafaqat tabiatni himoya qilishga, balki turizmni rivojlantirishda muhim iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni ham bajarishga yordam beradi.

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekiston jahon turizm bozorida eng jozibador mamlakatga aylanmoqda. Bu bir jihatdan yurtimizda turizm taraqqiyotiga katta e'tibor qaratilayotgani samaralari bo'lsa, ikkinchidan yurtimiz azaldan dunyo tamadduning xazinasi bo'lgan tarixiy obidalarga boyligi, xalqimizning bag'rikeng va mehmondo'stligi tufaylidir. Albatta bizda barqaror turizm sohasida imkoniyatlardan to'liq foydalanilsa, xorijlik turistlarning jonajon diyorimizga intilishi oshishiga, barpo etilayotgan Yangi O'zbekistonning istiqboli nurafshon bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025 yildagi PF-16-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni
2. Konstantinidi X. Ustoychivyy turizm:berejlivyye texnologii, bezbarernaya sreda i loyalmnost turistov. Jurnal RUSSPASS 07.10.2024 g.
3. Tixonova T.Yu. Konsepsiya ustoychivogo turizm (sustainable tourism) kak faktor ustoychivogo razvitiya (sustainable development) M.2017/Vestnik Universiteta mirovyyx sivilizatsiy
4. Eshtaev A.A. Buyuk ipak yo'li durdonasi: O'zbekistonda sayyohlik xizmatlari eksporti 3,5 milliard dollardan oshdi, lekin bu nega imkoniyatlarimizga mos emas? Yangi O'zbekiston gazetasi, №43, 2025 yil 1mart, shanba

www.uzbektourism.uz